



TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNING KRETIV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Ummataliyeva Oydina Shuxratjon qizi, Qo'qon DPI 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnologiya fani darslarida o'quvchilarning kretiv faoliyatini tashkil etish bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilish yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: mehnatning mazmuni, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar, qo'llanmalar, didaktik va tarqatiladigan materiallar

Keyingi paytlarda pedagogik nazariya va amaliyotda kretivlik, kreativ ta'limgiboralari ko'p qo'llanilmoqda. "Kreativ" so'zi lotincha "Creato" so'zidan olingan bo'lib, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma'noni bildiradi. Kengroq ma'noda oladigan bo'lsak, "Creato" so'zining ma'nosi ijodiy fikr, texnik loyiha, ijodkorlikka moyillik, o'quv-biluv jarayonida mas'uliyat, yaratuvchanlik kabi tushunchalarni anglatadi. Ijodkorlik va yaratuvchanlik metodlarini yaratishni o'rgatish esa kreativ pedagogika deyiladi.

Faylasuflarning fikricha, kreativliklik – bu bir vaqtning o'zida sub'ektning o'ziga va shu jumladan, tashqi olamga tegishli bo'lgan asl mohiyatdir. Kreativliklik yaratuvchanlik, yuqori ijodkorlik – sub'ektivlik ishtirokisiz amalga oshmaydi va faqat ijodkor shaxsnинг o'ziga xos xususiyati bilan amalga oshiriladi.

Pedagogikada kreativliklik deganda, asosan ixtirochilik, originallik, fantaziya, sezgirlik, muammoni tez hal qila olish qobiliyatları tushuniladi. Bu qobiliyatning ko'p qirrali ekanligi ta'kidlanadi. Kreativliklik – bu har tomonlama fikrlash, his qilish va harakat qilishga bo'lgan potensial layoqat hisoblanadi.

Bizningcha, kreativliklik – o'zida o'zaro bog'liq qobiliyat va elementlarni to'la jamlagan, integrativ qobiliyatdir. Masalan, kreativlik qobiliyatlar quyidagilar hisoblanadi: tasavvur, fantaziya, orzu qilish, noodatiy fikrlash va noyob qobiliyatlarni rivojlantirishlarni o'z ichiga oladi. Kreativliklik evristik bilish faoliyatini ta'minlovchi asosiy, ammo yagona bo'limgan qobiliyat hisoblanadi. O'quvchilarda ijodiy va vositali faoliyat natijasida albatta bilish jarayoni amalga oshadi, bunda kreativlik va kognitiv faoliyat bilan birga amalga oshadi. Kreativlik va kognitiv jarayonlar umumiyl tuzilish asosiga ega bo'lishi va o'quvchilar umumta'lim jarayoni natijasida ifodalanishi uchun o'quvchi qobiliyatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriluvchi tashkiliy-metodologik faoliyat zarur bo'ladi. Tashkiliy



faoliyatli qobiliyatlarga o‘z oldiga maqsad qo‘ya bilish, maqsadga intilish, biror ishni rejalashtira olish, belgilangan me’yorlarga amal qilish, o‘z-o‘zini anglash va boshqalar kiradi.

Ijodkorlikni tashkil qilishning zaruriy sharti – assertivlik (lotincha assertorius – tasdiqlamoq, o‘rgatmoq) hisoblanadi. Ya’ni o‘zi bilganicha mehnat turini bajarish qobiliyatidir. Assertivlik – shaxsning o‘ziga xos jihatidan namoyon qilishini anglatadi.

Shunday qilib, evristik ta’lim o‘quvchilarning rivojlanishida uch integrativ qobiliyatga tayanadi. Bular kreativlik, kognitiv va tashkiliy faoliyat turlarigi bog‘liqdir. Bunda evristik ta’lim deganda, biz o‘quvchilarning mahsulotlarni yaratishga qaratilgan faoliyat va harakatlarni amalga oshirishning kompleks (majmuaviy) imkoniyatlarini tushunishimiz mumkin.

Kreativlik qobiliyatlar turlicha bo‘ladi. Unga ko‘ra, ijodiy yoki kreativlik qobiliyatlarga tadqiqotlari mazmunidan kelib chiqib, turli o‘quvchilardagi turli miqdor va mazmundagi shaxs sifatlarini keltirib chiqaradilar.

Amerikalik tadqiqotchi D.Gilford o‘z xodimlari bilan birligida 1954 yildan boshlab kreativliklikni xarakterlovchi 16 intellektual qobiliyatni ajratib berdi. Mazkur qobiliyatlar ichida fikrlar yugurikligi, ya’ni tezligi (vaqt birligida paydo bo‘luvchi g‘oyalalar miqdori), originallik (umumiyligida tan olingan g‘oyalardan ajralib turuvchi g‘oyani o‘ylab topish qobiliyati), fikrning egiluvchanligi (bir g‘oyadan ikkinchisiga o‘ta olish qobiliyati), tirishqoqlik (atrof olamdagisi muammolarni his etish va bilishga intilish), fantastiklik (stimul va reaksiya o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik bo‘lganda reallikdan ajratib olib javob berish)larni sanab o‘tish mumkin. Bu sifatlarni Gilford umumiyligida nom bilan fikrlashning divergentligi deb ataydi. Rus psixologlarning iste’dodli bolalar ijodkorlik qobiliyatini o‘rganish borasidagi ishlarida quyidagi aniqlangan empirik belgilar keltiriladi: tavakkal qilish qobiliyati, divergent fikrlash, fikr va harakatdagi egiluvchanlik, fikrning tezligi, original g‘oyalarni bera olish qobiliyati, yangi biror narsani ixtiro qila olish, tasavvurning boyligi, turli xil va belgili narsalarni idrok qilish, yuqori estetik hislar bilan xarakterlanadi.

V.S.Shubinskiy o‘zi ishlab chiqqan ijodiy jarayon etaplaridan tashkil topgan o‘quvchilar ijodiy sifatlari tizimini taklif etadi:

1. Ijodiy vaziyatning paydo bo‘lish jarayoni – yangilikni his qilish, qarshi fikrlarga sezgirlik, tanqidiylik, ijodiy taxminlarga moyillik, ichki kurashni sinash qobiliyati, ma’lumotga tashnalik.



2. Evristik jarayon – oldindan sezish, ijodiy tasavvur, go‘zallikni his qilish, tirishqoqlik, o‘xshashlikni topa olish qobiliyati, originallik, jo‘shqinlik, jasurlik.

3. Yakunlovchi jarayon – o‘z-o‘zini tanqid qilish, turli isbothi shakllardan foydalanish qobiliyati, ijodkorlik natijalarini asoslash, bilimlarni yetarli darajada kengligi va chuqurligi, moddiy va ma’naviy shakllarga yangilik kirita olish malakasi va tajribalari.

Yuqoridagi sanab o‘tilgan shaxs sifatlari asosiylari va muammoli vaziyatlarda namoyon bo‘ladigan qobiliyatlar sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF TECHNOLOGY LESSONS." *Open Access Repository* 9.11 (2022): 114-119.
2. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan, and Parmankulova Orastakhon Sharifjon. "Choosing Organizational Forms of Education in the Effective Organization of Technology Courses." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.2 (2023): 77-81.
3. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "MAXSUS TA'LIMGA EHTIYOJI BO'LGAN BOLALAR UCHUN TA'LIMNING INTEGRATSİYALASHUVI." *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences*. Vol. 2. No. 4. 2023.
4. Sobirovna, U. M. "O'QUVCHILARNI TEXNOLOGIYA FANINI O'ZLASHTIRISHGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH." *Ustozlar uchun* 16.1 (2023): 392-399.
5. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "Technology As a Factor of Educational Education In Special Schools." *Journal of Creativity in Art and Design* 1.1 (2023): 4-7.
6. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS OF SPECIAL BOARDING SCHOOLS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429* 12.10 (2023): 62-67.
7. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIGA INTEGRATSION YONDASHUV." *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*. Vol. 2. No. 4. 2023.
8. Усмонова, Мухлисахон. "Imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishda texnologiya fanining dolzarbliji." *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире* 1.4 (2022).
9. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "TEACHING OF TECHNOLOGY IN SPECIAL BOARDING SCHOOLS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429* 12.10 (2023): 48-54.



10. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "PROVIDING INFORMATION ABOUT TEXTILES AND ITS HISTORY IN TECHNOLOGY CLASSES." *World of Medicine: Journal of Biomedical Sciences* 1.2 (2024): 28-32.
11. Xayrullayeva, V. X., and M. S. Usmonova. "IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALARGA PEDAGOGIK BILIM BERISH TIZIMINING AHAMIYATI." *Interpretation and researches* 1.1 (2023).
12. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "INKLYUZIV TA'LIMDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI O'QITISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI." *ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети Андижон машинасозлик институти*: 213.
13. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES." *Open Access Repository* 9.11 (2022): 106-113.
14. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS." (2022).
15. Sobirovna, U. M., and T. Irodaxon. "TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI." *PEDAGOGS jurnali* 21.1 (2022): 41-44.
16. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH." *World scientific research journal* 9.1 (2022): 220-224.
17. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "Improving the educational system for children with disabilities." *The Peerian Journal* 4 (2022): 20-22.
18. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS." (2022).
19. SOBIROVNA, UM. "Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education." (2021).
20. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS." (2022).
21. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES." *Open Access Repository* 9.11 (2022): 106-113.
22. Gulomovna, Ibragimova Maryamkhon, and Usmanova Mukhlisakhon Sobirovna. "IMPROVING THE FIELD OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL PERSONNEL IN THE SPECIALTY OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN UZBEKISTAN." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.7 (2022).